



CHO'LPON SHE'RIYATI POETIKASI

Shukurlayeva Nafisa

Qoraqalpoq Davlat universiteti O'zbek
filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Tajibayeva L. F

Yangi o'zbek she'riyatida poetik
obraz yangilanishi qonuniyatlari
Qoraqalpoq davlat universiteti

Rezyume: Ushbu maqolada yangi o'zbek she'riyatidagi poetik obrazlarning yangilanish tamoyillari ma'rifatparvarlik va jadid adabiyotlari namoyondalari ijodi orqali yoritib berilgan. Mumtoz adabiyotdagi an'anaviy gul, bulbul, qor, bulut kabi obrazlar ma'rifatparvarlik va jadid adabiyoti namoyondalari ijodida ijtimoiy mazmun kasb etganligi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: mumtoz adabiyot, ma'rifatparvarlik, jadid adabiyoti, obraz, an'ana, ijtimoiylik, shakl, mazmun, gul, bulbul, bulut, qor, yangi o'zbek adabiyoti .

Резюме: В данной статье через творчество представителей просветительства и современной литературы освещаются принципы обновления поэтических образов в новой узбекской поэзии. Анализируется, что такие традиционные для классической литературы образы, как цветок, соловей, снег, облако, приобрели социальное значение в творчестве представителей просветительства и современной литературы.



Ключевые слова: Классическая литература, просвещение, современная литература, образ, традиция, социальность, форма, содержание, цветок, соловей, облако, снег, новая узбекская литература.

Summary: In this article, the principles of renewal of poetic images in new Uzbek poetry are highlighted through the works of representatives of enlightenment and modern literature. It is analyzed that traditional images such as flower, nightingale, snow, and cloud in classical literature acquired social meaning in the work of representatives of enlightenment and modern literature.

Key words: classic literature, enlightenment, modern literature, image, tradition, sociality, form, content, flower, nightingale, cloud, snow, new Uzbek literature.

Jadid adiblari mumtoz adabiyot an'alarining so'nggi va yangi tipdagi zamonaviy adabiyotning dastlabki vakillari bo'ldilar. An'ana va yangilik aynan shular ijodida baqamti keldi. XX asr boshlari adabiy jarayonining yetakchi va belgilovchi kuchlari bo'lgan jadid adiblari ijodini tadqiq etish aynan shuning uchun ham zarur va adabiyotshunoslik uchun muhim xulosalar berishi tayin.

Shoirning ko'plab she'rlarida tarixiy shaxslar, buyuk shoirlar siymosi, tarixiy voqealar o'z ifodasini topdi. U ma'naviy merosdan o'z zamonasi muammolariga yechim qidirdi, buyuk insonlarning fazilatlari va hayotiy tajribalarini ibrat sifatida ishlatdi. Komil Xorazmiy bu davrda yozgan she'rlarida soddalikka intiladi, murakkab va mavhum iboralar qidirmaydi, she'rlarni turli bezaklarga burkamaydi. Ammo u shunday jo'shqin va haroratli satrlar yozadiki, ulardagi jo'shqinlik o'quvchida yuksak she'riy kayfiyat uyg'otadi. Bunday she'rlar o'zlarining ixchamligi va lo'ndaligi, bosim va hayajonning o'ziga xosligi bilan insoniyat ichki hissiyotlarini muammolarini, ijtimoiy-siyosiy hayotni aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Ular ta'sirida ijod qilgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy she'riyatining ijodiy



ko‘lamini yanada kengaytirdilar. Milliy merosdan tashqari umuminsoniyat madaniy merosiga murojaat qildilar. O‘z asarlarida jahon sivilizatsiyasining qiymatlaridan, mifologik va tarixiy obrazlardan foydalandilar va ular orqali zamonaning eng muhim ijtimoiy-siyosiy muammolariga yechim va ibrat qidirdilar. “Ijtimoiy ongning tozarishi milliy ruh va tuyg‘ularga ta’sir qilib, millat badiiy tafakkuruning ham yangilanishiga olib keldi”[1,174]. O‘zbek mumtoz adabiyoti xoslarning ko‘nglini uyg‘otishni maqsad qilgan bo‘lsa, yangi o‘zbek adabiyoti butun xalqning fikrini uyg‘otishni, tanballik va g‘aflat botqog‘iga botgan insonlarning qalbini uyg‘otishni maqsadga aylantiradi. Fikrni uyg‘otishning birdan bir yo‘li esa ma’rifat tarqatish edi. Yangi o‘zbek adabiyoti yaratilishidanoq, butun ommani ma’rifatli qilishga yo‘naltirilgan. Hattoki ishqiy g‘azallarda ham ma’rifatli bo‘lish targ‘ib etilgan.

“Shuning uchun Muqimiy lirikasida “baxtsizlik”, “tole zabunlik”, “zulm”, jabru sitam” iboralarini tez-tez uchratamiz, shoirning ko‘p she’rlari “Charxi kajraftor” dan shikoyat qilib, “bulbullar o‘rnini zog‘lar” olgani, “ahli tamiz” xor bo‘lib, “nodonlar”ning izzat-ikromda ekanligi haqida so‘zlaydi”[2,21]. Muqimiyning Viktor, To‘yi Iqon bachcha, Ko‘r Ashurboy xoji haqidagi satiralari borki ularning xatti-harakatlaridan, fe‘l-atvorlaridan ma’lum bir guruhni yoki ma’lum bir ijtimoiy hodisani jonli lavhalarda ko‘rsatib berish ustuvorlik qiladi. Ular orqali jamiyatning kirdikorlari, amaldorlarning asl basharalari fosh etiladi. “Bu shaxslar ham Muqimiy tomonidan to‘laqonli tip sifatida yaratilganlar va o‘z harakatlari, fe‘l-atvorlari bilan ma’lum ijtimoiy hodisaning mohiyatini ochib beradilar”[2,25]. O‘zbek adabiyotining Muqimiygacha bo‘lgan davrida kishi obrazi orqali jamiyat hayotini aks ettiruvchi asarlar yaratilmagan. Muqimiydan keyingi ijodkorlar asarlarida esa bunga ko‘pgina misollar uchraydi.

Yangi o‘zbek adabiyotining yalovbardorlaridan biri Fitrat she’riyatida xalq she’riyatiga xos tabiiylik, quymalik va obrazlilik yaqqol ko‘zga tashlanib turadigan jihatlardandir. Shoir ijodida gul obraziga mumtoz adabiyotdan farqli ravishda ijtimoiy ma’no yuklaydi. Bilamizki, mumtoz adabiyotda gul obrazi yor timsoli sifatida qo‘llanilgan,



Fitrat ijodida esa kelajakdan umid, yorqin va go'zal kunlarning nishonasi sifatida poetik ma'no kashf etadi.

O'z fikrlarini obrazlar, ramzlar qatiga yashirishga majbur bo'lgan ijodkorlar o'zlari anglamagan holda yangi o'zbek she'riyatiga yangicha ruh olib kirganlar. To'g'ri, mumtoz davr adabiyoti ham obrazlar, jimjimador o'xshatishlar, yashirin ma'nolar tiliga qurilgan adabiyotdir, lekin Fitrat va Cho'lpon obrazlari mumtoz davr adabiyotidan keskin farq qiladi. Ular tabiatda hodisalari orqali o'y-fikrlarini bayon etishga urinadi. Fitrat va Cho'lpon ijodida oddiygina "samon parcha"ning ham o'z o'rni bor, birgina "bulut" timsoli oq va qora ranglarda bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi ma'noni ifodalaydi.

"Qor" obrazi orqali xalqning oppoq orzulari ifodasini berarkan shoir, ucha-ucha maqsadiga etmay shamolda sovrilgan tilaklarni o'ziga xos tarzda tasvirlashga urinadi. Cho'lpon o'zining "Tortishuv tongi" she'rida esa qor obraziga o'zgacha ma'no yuklaydi:

Har ikkala ijodkor tabiat hodisalaridan o'rinli foydalana olgan. Real hayotda yuz berayotgan voqealarni ko'ngil prizmasidan o'tkazib, yangi obrazlar qatiga joylashda har ikki ijodkorning ham mahorati tahsinga loyiq.

Cho'lpon ijodida qon obrazi alohida ahamiyat kasb etadi. Uning *she'rlaridagi* "Har kimdan ko'p qon yig'lagan sen eding", "Ko'pdan ichib kelgan qonlarin uning", "Quyuyq bulut to'dasi qonli yosh to'kib yig'lar?", "G'olib G'arbning qonga to'lgan ko'zidek", "Zo'r dengizning to'lqinida, bag'rida, Yuz yillarning qonli, qo'rqinch izi bor;" kabi misralar orqali yurtning ayanchli ahvoli, xalq boshiga tushgan mislsiz jabr-zulmlar, otalarning faryodi, onalarning fig'oni, go'daklarning ohu-nolasi, beva-bechoralarning alamli ko'z-yoshalari aks etgan. Cho'lpon ijodida "bulut" obrazi ham o'ziga xos poetik ma'no tashiydi. "Bulut ko'zidan esa erga og'u- yosh sochilar." , " Mening o'yimmi qora? Yoki yurt ko'kida bulut?", "Qora bulut to'dasikim, ko'klarni, Sharqni yopgan parda yanglig' yopmishdir" "Qop-qora dev kabi bulut yig'ini, Qoplab oldi yana quyosh yuzini", "Ko'k yuzida qop-qora, Ko'mir kabi qator-qator bulutlar;" kabi misralar orqali yurtimiz



boshiga kelgan balolar, xalqimiz hayotini ayanchli ahvolga olib kelgan ofatlar bulut obrazi orqali gavdalandiriladi.

“O‘zgarish zarurati nechog‘li dolzarb bo‘lmasin, jadid shoirlarning ijodiy izlanishlari eng avval mumtoz she‘riyat an‘analari negizida kechganini ham ta‘kidlash kerak. Bu tabiiy ham negaki, jadid shoirlarning bari milliy madaniy zaminda etishganlar. Xuddi vazn bobidagi izlanishlar aruzdagi jonli tilga eng muvofiq o‘lachovlarni saylab ishlatishu aruz imkoniyatlarini kengaytirishdan boshlangani kabi, ifoda sohasidagi izlanishlar ham mumtoz she‘riyatdagi poetik obrazlarga yangicha mazmun yuklashdan boshlandi”[3,78]. Cho‘lpon she‘riyatida davrga hamohang tarzda g‘oya va mavzularida o‘zgarish va yangilanishlar sodir bo‘lganidek, uning ramz, majoz va timsollar olamida ham o‘zgarish va yangilanishlar yuzaga keldi. O‘z she‘rlarida mumtoz she‘riyatimizdagi an‘anaviy poetik obrazlarni avvalgi g‘oyaviy-badiiy mazmunlarini saqlagan holda ulardan ko‘proq davr va hayotning ijtimoiy, ma‘naviy va axloqiy masalalarini talqin qilish uchun foydalandi. Uning quyidagi she‘riga e‘tibor bersak an‘anaviy bulbul va gul obrazlariga ijtimoiy ma‘no yuklaganing guvohi bo‘lamiz.

Cho‘lpon, el – shamol, qon, bulut,ko‘lanka, yo‘lchi,yulduz, tong, tun, quyosh, timsollarini yangi-yangi hayotiy haqiqat va maqsadlar uchun xizmat qildirgan simvolist shoirdir. “Lekin Cho‘lpon simvolizmi real zaminda turadi, chunki ramzlari – obrazlari hayotdan, tabiatdan olingandir. Shu bois ham shoir “Qushning hadigi’ni tasvirlash orqali jamiyatda erksizlik kuchayayotganini, “Binafsha” orqali inson qadri-yu shani toptalyotganini, “somon parcha” orqali jamiyatda shaxlik maqomi bekor bo‘layotgani haqidagi tshvish-u alamlarni ifodalay oldi. Ya‘ni u chinakam sa‘natkor sifatida analogiyalar yordamida obrazli tafakkur qildi va shu tufayli ham o‘z ijodi bilan she‘riyatni san‘at tomon burdi”[4,232] .Shuni alohida qayd etish kerakki, obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda birmuncha murakkab hodisa sanaladi, lekin she‘riyatning chin ma‘noda yuksalishi va yangilanishi ana shu poetik hodisaga ko‘proq bog‘liqdir. “Ijtimoiy ongning



tozarishi milliy ruh va tuygʻularga taʼsir qilib, millat badiiy tafakkurining ham yangilanishiga olib keldi”[1,174].

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, oʻzbek adabiyotshunosligida XX asr boshlari milliy adabiyotimizning yangilanish tendensiyalari yuzasidan izchil tadqiqotlar olib borilmoqda. Milliy adabiyot takomilining ijtimoiy va adabiy-estetik asoslari oʻrganilmoqda. adabiyotimizning yangilanish tamoyillarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda jadid adabiyoti vakillarining boy merosini ayni shu muammo nuqtai nazaridan alohida oʻrganish esa adabiyotshunoslikning ustuvor vazifalaridan. Chunki “Adabiyot va sanʼatga, madaniyatga eʼtibor – bu avvalo, xalqimizga eʼtibor, kelajagimizga eʼtibor ekanini buyuk shoirimiz Choʻlpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yoʻq”[5,3]. Jadid ijodkorlarining milliy adabiyotni yangilashdagi xizmatlari xalqimizning koʻpming yillik ogʻzaki ijodi anʼanalari, mumtoz adabiyotimiz va jahon badiiy tafakkuri tajribalariga tayanishi bilan bogʻliq adabiy-estetik tamoyillar tadqiqini amalga oshirish zarurati oʻzbek adabiyotshunosligi kun tartibida turgan dolzarb masalalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yoʻldoshev Q. Yoniq soʻz. T.:2006. Yangi asr avlodi.
2. Muqimiy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Lirik.
3. Афақова Н. Ўзбек жаҳид адабиётида шеърый шакллар тараққийт тамойиллари: Филол. фанлари доктори ... дис. – Т.: 2006
4. Hamdamov U. Yangi oʻzbek shariyati. -T.: Adib, 2012
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир” мавзусида Ўзбекистон ижодкор зиёлилари билан учрашувдаги маърузаси / Халқ сўзи. – Тошкент, 2017 йил 4 август.